



TOP-CONFERENCES

# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Samarqand Viloyatida Tibbiy Xizmatlar Sohasini Davlat Xususiy Sherikchilik Asosida Takomillashtirish Imkoniyatlari

**Munavvar Axrorova**

Samarqand Iqtisodiyot Servis instituti tayanch doktaranti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlar sohasini davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli asosida takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tibbiy xizmatlar sohasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin egallashi qayd etilib, DXSh modeli orqali moliyalashtirishning diversifikatsiyasi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar spektrining kengayishi va kadrlar resurslarining samarali boshqaruvi kabi ustunliklari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat-xususiy sheriklik, tibbiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, Samarqand viloyati, innovatsion infratuzilma, xususiy sektor, moliyaviy barqarorlik, sog'liqni saqlash islohotlari.

Tibbiy xizmatlar sohasi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, aholining sog'lig'ini saqlash bilan birga mehnat unumdorligi va inson kapitalining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmatlar sohasida keng ko'lamli islohotlar boshlangan bo'lib, ular infratuzilmani modernizatsiya qilish, tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini oshirish va davlat hamda xususiy sektorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Samarqand viloyati, aholi soni va urbanizatsiya darajasi bo'yicha mamlakatning yetakchi hududlaridan biri sifatida mazkur islohotlarning strategik markaziga aylangan.


Hozirgi vaqtda Samarqand viloyati tibbiy xizmatlar sohasi ko'p bosqichli yaxlit tizim sifatida shakllangan bo'lib, 2024-yil holatiga ko'ra, hududda jami 41 shifoxona, 16 ko'p tarmoqli poliklinika, 70 oilaviy poliklinika, 164 oilaviy shifokorlik punkti va 680 xususiy klinikalar faoliyat ko'rsatmoqda. Oxirgi yillar davomida ambulatoriya-poliklinika xizmati ko'rsatadigan muassasalar tarmog'i kengayib bormoqda. Tibbiy xizmatlar sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari sonining ko'payishi ham ijobiy o'zgarishlardan biridir. Hududdagi tibbiyot muassasalarining asosiy qismi davlat mulki hisoblanadi, ammo so'nggi yillarda xususiy sektor ishtirokining kengayishi kuzatilmoqda. So'nggi yillardagi muhim o'zgarishlardan biri bu tibbiy xizmatlarini ko'rsatish va moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining ortib borayotgan rolidir. DXSh mexanizmlarining qo'llanilishi xususiy investitsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish shakllarini diversifikatsiyalash va davlat byudjetiga tushadigan bosimni

kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bularning barchasi xizmat sifati va tengligini saqlab qolgan holda amalga oshirilmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, Samarqand viloyatida 7 ta davlat-xususiy sheriklik loyihasi faoliyat yuritmoqda, xususiy klinikalar soni esa so‘nggi uch yil ichida deyarli ikki baravarga oshgan.

**1-jadval. Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlar va ulardan foydalanish holati<sup>1</sup> (2010-2024 yy.)**

Yillar	Shifoxona muassasalar soni, birlik	Statsionarda davolangan bemorlar soni, ming nafar	Shifoxona muassasalaridagi o‘rinlar soni, birlik	Ambulator poliklinikalar soni, birlik	Shifokorlar soni, nafar
2020	109	821,6	14800	507	9936
2021	120	622,7	17100	635	10473
2022	120	667,7	17300	639	11386
2023	125	673,9	17520	808	11988
2024	127	682,8	17725	768	12114
2024-yil 2010-yilga nisbatan, %	113,4	155,6	124,8	133,1	174,1
2024-yil 2019-yilga nisbatan, %	128,3	115,3	132,3	150,9	125,4
2024-yil 2023-yilga nisbatan, %	101,6	101,3	101,2	95,0	101,1

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021–2024-yillar davomida Samarqand viloyatida tibbiyot muassasalari soni 70 foizdan ziyod, umumiy tibbiy o‘rinlar soni esa qariyb 50 foizga ortgan. Bu esa aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini yanada to‘liqroq qondirish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va zamonaviy infratuzilmalarni yaratish imkonini bermogda. Xususiy sektor ishtirokining kuchayishi, ayniqsa, so‘nggi uch yilda klinikalar sonining ikki baravarga oshgani, bu yo‘nalishdagi islohotlarning barqarorligini tasdiqlaydi.



**1-rasm. Davlat xususiy sherikchilik mexanizmining tibbiy xizmatlar sohasiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri (tahlillar natijasida muallif ishlanmasi).**

<sup>1</sup> Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

DXSh modeli tibbiy xizmatlar sohasida quyidagi asosiy ustunliklarga ega:

- **Moliya resurslarini diversifikatsiyalash** – davlat budjeti imkoniyatlarining chegaralangan sharoitida xususiy kapitalni jalb etish orqali tibbiy xizmatlar sohasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.
- **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish** – xususiy sektorning zamonaviy uskunalari va menejment yondashuvlarini joriy etishi xizmat sifati va samaradorligini oshiradi.
- **Xizmatlar spektrining kengayishi** – ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologik va tezkor xizmatlar ko'rsatishda xususiy shirkatlar faol ishtirok etadi.
- **Kadrlar resursining samarali boshqaruvi** – DXSh loyihalari doirasida tibbiy xizmatlar sohasida kadrlar malakasini oshirish, xorijiy tajribani joriy etish imkoniyati yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari Samarqand viloyatida sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va infratuzilmani kengaytirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Kelgusida bu modelni yanada takomillashtirish orqali sog'liqni saqlash tizimining innovatsion, barqaror va adolatli rivojlanishini ta'minlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi statistik byulletenlari, 2010–2024 yillar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari, 2017–2023 yillar.
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) – “Public-private partnerships in health care”, 2021.
5. Xalqaro sog'liqni saqlash innovatsiyalari jurnali – “The role of PPP in medical infrastructure”, 2022.
6. Health Policy and Planning – “Private sector engagement in health systems in developing countries”, 2020.
7. Mahalliy va xorijiy OAVda e'lon qilingan statistik hisobotlar va sog'liqni saqlash sohasidagi tahliliy maqolalar.